

DAVLATLAR O‘RTASIDAGI NIZOLARNI TINCH YO‘L BILAN HAL ETISH MEXANIZMLARI: XALQARO HUQUQIY JIHATLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Yuldoshev Sardor Abdumajid o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish institutining Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha
professional o‘qitish fakulteti dekani v.b.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarining xalqaro-huquqiy asoslarini, nazariy jihatlarini va amaliy tatbiq etilishini tahlil qiladi. Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlangan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsiplari, arbitraj va sud mexanizmlari, diplomatik vositalar hamda zamonaviy vaqtda yuzaga kelayotgan yangi yondashuvlar o‘rganiladi. Maqolada xalqaro nizolarni hal etishning an‘anaviy usullaridan tortib, ko‘p tomonlama diplomatiya va regional tashkilotlarning rolini o‘z ichiga olgan zamonaviy mexanizmlarigacha bo‘lgan keng doira qamrab olingan.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro nizolar, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, arbitraj, xalqaro sud, diplomatiya, BMT, regional tashkilotlar*

XXI asrda globallashuv jarayonlari va davlatlararo o‘zaro bog‘liqlikning ortishi natijasida xalqaro nizolarning xarakteri va ularni hal etish usullari sezilarli o‘zgarishlarga uchrab kelmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlari zamonaviy xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, global tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro nizolarning kuchdan foydalanish yo‘li bilan hal etilishi nafaqat bevosita ishtirokchi davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tarixan isbotlangan hamda bugungi kunda sodir bo‘layotgan hodisalar bilan ham o‘zining isbotini topmoqda. Shu sababli, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish zamonaviy xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalaridan biridir.

Davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi zamonaviy xalqaro huquqning fundamental qoidalaridan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 2-moddasining 3-bandida quyidagicha ifodalangan: “Barcha a‘zo davlatlar o‘zlarining xalqaro nizolarini tinch usullar bilan, xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostiga qo‘ymagan holda hal etadilar.”

Shuningdek, ushbu Nizomning 33-moddasiga muvofiq har qanday nizoda qatnashuvchi tomonlar, bu nizoning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikning saqlanishiga tahdid soladigan bo‘lsa, avvalo, nizoning muzokaralar yuritish, tekshirish, vositachilik, yarashish, arbitraj, sud yo‘li bilan hal etishni amalga oshirishlari lozimligi belgilangan.

BMT Ustavi 33-moddasi VI bobning ("Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish") birinchi moddasi bo‘lib, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipining fundamental huquqiy asosini yaratadi. Bu modda zamonaviy xalqaro huquqda jus cogens (majburiy huquq) normasi maqomiga ega. Italiyalik xalqaro huquqshunos, professor Antonio Cassese ta’kidlaganidek, ushbu prinsip nafaqat shartnoma huquqida, balki odat huquqida ham mustahkamlangan bo‘lib, undan chetga chiqishga ruxsat berilmaydi.

Misol sifatida bu prinsipning huquqiy majburiyati Xalqaro Sudning 1984-yildagi “Nikaragua AQShga qarshi keysi”ga oid qarorida ham tasdiqlanganligini keltirib o‘tish mumkin. Unga ko‘ra Xalqaro sudning xulosasi kuchdan foydalanish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishni taqiqlash, o‘zini o‘zi himoya qilish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi xalqaro huquq normalarida aks etgan prinsiplarning qo‘llanilishini tushuntirishda muhim omil bo‘lgan.

BMT Ustavi 33-moddasida keltirib o‘tilgan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarini quyidagicha tartibda ajratib olishimiz va izoh berishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni diplomatik usullar, huquqiy usullar va aralash usullar.

Dastlab diplomatik usullarni ko‘rib chiqamiz. Diplomantik usullarning birinchisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish kirib, u eng sodda va keng tarqalgan usul bo‘lib hisoblanadi hamda nizoli tomonlar o‘rtasida bevosita suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, u tashqi aralashuvsiz va davlatlarning suverenitetini to‘liq hurmat qilgan holda amalga oshiriladi. Ikkinchi usul yaxshi niyatdagi xizmatlar bo‘lib, unda uchinchi tomon nizoli tomonlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga yordam beradi, lekin hal etish jarayonining mazmuniga aralashmaydi. Bu usul ko‘pincha diplomatik aloqalar uzilgan hollarda qo‘llaniladi. Uchinchi usul esa vositachilik bo‘lib, bunda vositachi nizoning mohiyatini o‘rganib, tomonlarga aniq takliflar beradi.

Yuqorida keltirilgan tartibga muvofiq keyingi usul huquqiy usullarni o‘z ichiga olib, ular arbitraj va sud yurisdiksiyasidan iborat. Arbitraj jarayonida nizoli tomonlar o‘zlari tanlagan arbitrlar hay’ati oldida o‘z pozitsiyalarini himoya qiladilar. Arbitraj qarori (arbitraj hukmi) tomonlar uchun majburiydir. Sud yurisdiksiyasi Xalqaro Sud va boshqa xalqaro sud organlaridagi sud jarayonlari eng rasmiy tinch yechim usuli hisoblanadi. Sud qarorlari qat’iy majburiy kuchga ega.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishning keyingi usuli aralash usullar bo‘lib ularga konsiliatsiya yoki mediatsiya va “good offices va fact-finding” usullari kiradi.

Konsiliatsiya va mediatsiya bu suddan tashqari nizolarni hal qilish shakllari bo‘lib, unda betaraf uchinchi shaxs (mediator yoki konsiliator) nizoda ishtirok etuvchi tomonlarga o‘zaro maqbul yechim topishda yordam beradi. Ularning o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, mediator tomonlarga muayyan variantlarni taklif etmasdan kelishuv ishlab chiqishda ko‘maklashsa, konsiliator esa ko‘proq hamkorlikka asoslangan yondashuv orqali o‘z takliflari va yechim variantlarini berishi mumkin. “Good offices va fact-finding” usuli faktlarni aniqlash vazifalarini o‘z ichiga olib, unda nizoning haqiqiy holatini o‘rganib, obyektiv ma’lumotlar asosida yechim topishga yordam beradi.

Vaqt o‘tishi bilan davlatdan tashqari subyektlar bilan bog‘liq bo‘lgan, kibermakon va ekologik nizolar kabi yangi nizolar vujudga kelayotganligi sababli nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishda zamonaviy qiyinchiliklar paydo bo‘lmoqda. Davlatdan tashqari subyektlar bilan bog‘liq nizolar – XXI asrda davlatlar nafaqat bir-birlari bilan, balki davlatdan tashqari subyektlar (terror guruhlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar) bilan ham nizolarda qatnashadilar. Bu yangi turdagi nizolar an’anaviy tinch yechim mexanizmlarining moslashuvini talab qiladi.

Kibermakon nizolari – raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan kibermakon nizolari yangi kategoriya sifatida paydo bo‘ldi. 2007-yildagi Estoniya kiberhujumlari va 2010-yildagi Stuxnet virusi kabi holatlar kibermakon nizolarini hal etish uchun yangi mexanizmlar zarurligini ko‘rsatdi. Ekologik nizolar – iqlim o‘zgarishi, trans-chegara ifloslanishi va tabiiy resurslardan foydalanish masalalarida davlatlar o‘rtasidagi nizolar ortib bormoqda.

Shu bilan bir qatorda nizolarni oldindan aniqlash va ularning kuchayishini oldini olishdan iborat bo‘lgan prevent diplomatiya va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishda regional tashkilotlarning rolini oshishi kabi yangi tendensiyalar vujudga kelmoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi mintaqaviy tuzilmalar – BMTning mintaqaviy komissiyalari va maxsus organlari ham nizolarni oldini olish va hal etishda muhim rol o‘ynaydi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT / OSCE) – Yevropa hududida xavfsizlik, diplomatik vositachilik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish bo‘yicha yetakchi tashkilot, Yevropa Kengashi – inson huquqlari va huquqiy-demokratik tamoyillar asosida nizolarni hal etishga xizmat qiladi, Afrika Ittifoqi (AI / AU) – Afrika qit’asida nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, vositachilik va tinchlikparvar missiyalarni amalga oshiradi, Amerika Davlatlari Tashkiloti (OAS / OAD) - Lotin Amerikasi va Shimoliy Amerika mamlakatlari o‘rtasida nizolarni hal qilishda faol ishtirok etadi, Arab Davlatlari Ligasi (Arab Ligasi) – arab mamlakatlari o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishda muhim o‘rin tutadi, Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT / OIC) – islom mamlakatlari o‘rtasida vositachilik, tinchlikni ta’minlash va diplomatik muloqotni rivojlantirishda faol, Shanxay

Hamkorlik Tashkiloti (ShHT / SCO) – Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalarda xavfsizlik, barqarorlik hamda hamkorlik asosida nizolarni hal etishga xizmat qiladi, Janubi-Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) – Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida muloqot va diplomatik mexanizmlar orqali nizolarni hal qiladi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH / CIS) – sobiq SSSR hududida nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga doir mexanizmlar mavjud, Yevropa Ittifoqi (EI / EU) – siyosiy-diplomatik choralar orqali mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash va nizolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarining o‘ziga yarasha samaradorligi va cheklovlari ham mavjud. Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarining samarasini oshiruvchi omillarga tomonlarning ixtiyoriy roziligi, vositachining neytralligi va vakolatlilik, xalqaro hamjamiyatning qo‘llab-quvvatlashi, ijro mexanizmlarining mavjudligi hamda tomonlarning demokratik tabiati kirs, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlaridagi asosiy cheklovlar suverenitet prinsipi asosida davlatlar o‘z ichki ishlariga aralashishni qabul qilmasliklari, majburiy yurisdiksiyaning yo‘qligi, ya‘ni ko‘pchilik holatlarda tomonlarning roziligi zarur bo‘lishi, ijro mexanizmlarining zaifligi sababli qarorlarni amalga oshirish ko‘pincha tomonlarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lishi hamda assimetriya, ya‘ni kuchli va zaif davlatlar o‘rtasidagi nizolarda kuch balansini muhim rol o‘ynashini o‘z ichiga oladi.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarini takomillashtirishning istiqbollari texnologik innovatsiyalarda, ya‘ni sun‘iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va virtual reallik vositachiligi jarayonlarini yanada samarali qilish uchun qo‘llanilishida (2020-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida virtual diplomatiya keng tarqaldi), ko‘p darajali governance, ya‘ni zamonaviy nizolar ko‘pincha mahalliy, milliy, regional va global darajalarni o‘z ichiga olishi sababli ko‘p darajali yechim mexanizmlarining rivojlantirilishida, gender va inklyuziv yondashuvlar, ya‘ni inklyuziv tinch jarayonlar yanada barqaror natijalar berishida (BMT Xavfsizlik Kengashining 1325-sonli rezolyutsiyasi ayollarning tinchlik jarayonlaridagi ishtirokini oshirishni talab qildi) hamda gibril mexanizmlar, ya‘ni an‘anaviy va zamonaviy usullarni birlashtiruvchi gibril mexanizmlarning samarali bo‘lishida (an‘anaviy arbitraj bilan texnologik vositalarni birlashtirish) namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlari zamonaviy xalqaro tizimning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. BMT Nizomi va xalqaro odat huquqi asosida shakllangan bu mexanizmlar doimiy rivojlanish va takomillashtirishni talab qiladi.

Globallashtirish sharoitida yangi turdagi nizolar paydo bo‘lishi, davlatdan tashqari subyektlar rolining kuchayishi va texnologik o‘zgarishlar nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish

mexanizmlarining moslashuvini talab qilmoqda. Regional tashkilotlar rolining ortishi, prevent diplomatiyaning rivojlanishi va inklyuziv yondashuvlarning kengayishi ijobiy tendensiyalar hisoblanadi.

Kelajakda nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun prevent diplomatiya imkoniyatlarini kengaytirish, regional mexanizmlarni kuchaytirish, yangi texnologiyalardan foydalanish, ijro mexanizmlarini takomillashtirish hamda “civil” jamiyat va nodavlat tashkilotlarining ishtiroki kabi muhim yo‘nalishlarda ishlash zarur.

Xalqaro hamjamiyatning nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlariga bo‘lgan e’tibori va qo‘llab-quvvatlashi global tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi. XXI asrning murakkab qiyinchiliklari oldida bu mexanizmlarning uzluksiz rivojlanishi va takomillashtirilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brownlie, I. (2019). Principles of Public International Law. Oxford: Oxford University Press.
2. Cassese, A. (2021). International Law. Oxford: Oxford University Press.
3. Merrills, J.G. (2017). International Dispute Settlement. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Shaw, M.N. (2020). International Law. Cambridge: Cambridge University Press.
5. BMT Nizomi va Xalqaro Sud Statuti.
6. ICJ Reports, 1970-2023.
7. UNSC Resolutions on peaceful settlement of disputes.
8. Regional organizations' documents on conflict resolution.